

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.PED.166.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TURG'UNTOSHEV MUXLISBEK ILHOMJON O'G'LI**

**MILLIY HAKKATLI O'YINLAR VOSITASIDA BO'LAJAK  
TARBIYACHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARI**

**13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon - 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Turg‘untoshev Muxlisbek Ilhomjon o‘g‘li**

Milliy harakatli o‘yinlar vositasida bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari ..... 3

**Тургунтошев Мухлисбек Илхомжонович**

Механизмы развития физических качеств будущих воспитателей посредством национальных подвижных игр ..... 23

**Turguntoshev Mukhlisbek Ilhomjon ogli**

Mechanisms for developing the physical qualities of future educators through national outdoor games..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published word ..... 49**

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.PED.166.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TURG'UNTOSHEV MUXLISBEK ILHOMJON O'G'LI**

**MILLIY HAKKATLI O'YINLAR VOSITASIDA BO'LAJAK  
TARBIYACHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARI**

**13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.Phd/Ped9874 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasiga ([www.adpi.uz](http://www.adpi.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdullayev Abdukayum Abdulkayevich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Azimova Ziyoda Ergashevna**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**Yarmatov Rahimboy Bahramovich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Nizomiy nomidagi O‘zbekiston  
milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025 - yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70, e-mail: [adpi@edu.uz](mailto:adpi@edu.uz), [p-institut@exat.uz](mailto:p-institut@exat.uz). Andijon davlat pedagogika instituti, Ma’muriyat binosi, 2-qavat, 208-kengashlar xonasi)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_da tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.M.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**D.T.Samatov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, p.f.d., professor

**B.A.Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon global ta'lim tizimida talabalarning jismoniy faoliyatga qiziqishini rivojlantirish, ularning harakat ko'nikmalarini tahlil qilish va jismoniy sifatlarni mustaqil rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ta'lim - 2030"<sup>1</sup> (UNESCO Education - 2030 Framework for Action) dasturida jismoniy tarbiya orqali ijodiy yondashuv, faol harakat, tanqidiy fikrlash va sog'lom turmush tarziga motivatsiyani kuchaytirish ta'limning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida belgilab berilgan. Globalizatsiya kuchaygan zamonaviy sharoitda milliy qadriyatlar va madaniy merosning yemirilishi xavfi ortib borayotgan bir paytda, milliy harakatli o'yinlar o'z ahamiyatini yanada oshirib bormoqda. Chunki ular nafaqat yoshlarning jismoniy faoliyatini rag'batlantiradi, balki o'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy qadriyatlarini anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dunyoda bugungi kunda rivojlanish tendensiyalari orasida jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida tan olinmoqda. Xususan, dunyo miqyosida yoshlar o'rtasida semizlik, jismoniy harakatsizlik, psixologik stress va depressiya bilan bog'liq muammolarning keng ko'lamda tarqalayotgani milliy harakatli o'yinlarni ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatiga kiritish zaruriyatini yanada oshirmoqda. Dunyoning turli mamlakatlarida milliy o'yinlar orqali yosh avlodda nafaqat jismoniy faollikni rag'batlantirish, balki jamiyatda sog'lom hayot tarziga yo'naltirilgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, shaxsiy va ijtimoiy sog'lom muhitni mustahkamlash imkoniyatlari mavjudligi isbotlanmoqda.

Mamlakatimizda milliy harakatli o'yinlar xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular asrlar davomida yosh avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy kamolotida muhim vazifani bajarib kelgan. Hozirgi davrda O'zbekistonda ham yoshlarning jismoniy harakatchanligi tobora kamayib borayotgani, ularning uzoq muddat harakatsiz holatda bo'lishi (ayniqsa, kompyuter va mobil qurilmalardan haddan tashqari foydalanish) turli xil salomatlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yosh avlodning hayot tarzi o'zgarib, jismoniy faollik darajasi pasayib ketmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg'or xorijiy sport-ta'lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish"<sup>2</sup> bilan birgalikda o'z milliy o'yinlarimizga ham katta e'tibor qaratish lozim.

---

<sup>1</sup> SDG 4 - Education 2030 Global Education Cooperation Mechanism

<sup>2</sup> PQ-414 03.11.2022 - Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi, 3-noyabr 2022-yildagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>2</sup>gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24-yanvar 2020-yildagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>3</sup>gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>4</sup>gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>5</sup>gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>6</sup>gi, qaror va farmonlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”<sup>7</sup>gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, xususan, ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvni kuchaytirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport tizimida o‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish zarurati Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarori - “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori// 03.11.2022 yildagi PQ-414-son// <https://lex.uz/docs/-6273973>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 24.01.2020 yildagi PF-5924-son// <https://lex.uz/ru/docs/-4711327?ONDATE=24.12.2024>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni / <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4545884>.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 577-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.07.2019-y., 09/19/577/3416-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 01.03.2025-y., 09/25/130/0199-son.

ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi qarorida o'z ifodasini topgan. Mazkur qarorda ta'lim muassasalarida milliy sport turlari va harakatli o'yinlarni keng joriy etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur qaror va farmonlar ijrosini taminlashga ushbu tadqiqot ishimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz milliy harakatli o'yinlarni uzluksiz ta'lim tizimida o'rganish va qo'llash jarayonida yoshlarda yangicha jismoniy tafakkurni shakllantirishning milliy modeli A.A.Abdullayev<sup>2</sup>, G.M.Salimov<sup>3</sup>, S.S.Tojiboyev<sup>4</sup>, D.J.Sharipova<sup>5</sup>, I.R.Abdurahmonov<sup>6</sup>, A.K.Atoev<sup>7</sup>, F.Ahmedov<sup>8</sup> va N.O'.Xakimova<sup>9</sup>lar tadqiqotlarida tadqiq qilingan. Xalq milliy harakatli o'yinlarining ijtimoiypedagogik xususiyatlarini o'rganish borasida talay ishlar qilindi. Olimlar o'z tadqiqotlari doirasida xalq milliy o'yinlaridan foydalanish haqida u yoki bu darajada fikr yuritganlar. F.N.Nasriddinov<sup>10</sup>, R.S.Salomov<sup>11</sup>, T.S.Usmonxo'jayev<sup>12</sup>, M.Yu.Yunusova<sup>13</sup>, YE.Ya.Bondarevskiy<sup>14</sup>, F.Xo'jayev<sup>15</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligining sustligi aniqlangan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport darslarining amaliy ahamiyatini targ'ib qilish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini mustahkamlashning nazariy jihatlarini va jismoniy sifatlarining

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarori

<sup>2</sup> A.A.Abdullayev "Xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish" Dissertatsiya ishi PhD (13.00.01)

<sup>3</sup> G.M.Salimov "Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi". Toshkent 2007y

<sup>4</sup> Tajiboyev S. S. (2019). O'quvchilarda sport harakatlarini rivojlantirish usullari. Samarqand: Pedunivers.

<sup>5</sup> Шарипова Д.Ж. Научно-педагогические основы гигиенического воспитания школьников: Автореф. Дисс... канд. пед. наук. – Тошкент, 1990. – 44 с.

<sup>6</sup> Абдурахмонов И.Р. Узбекские народные игры. – Т.: Автореф. дис.. канд. фил. наук. – Т., 1997. -24 с.

<sup>7</sup> Atoev A.K. Oilada bolalar jismoniy tarbiyasining nazariyasi va amaliyeti. – T.: O'qituvchi, 1992.-150 b

<sup>8</sup> Ahmedov.F. Milliy an'analarning jismoniy ta'lim madaniyatida tutgan o'rni. // "Xalq ta'limi" 2006.-№4 97-100 b

<sup>9</sup> Хакимова Н.Ў., Доннева Ё.Ч. Миллий халқ ўйинлари - кадриятларимиз ва маънавиятимизнинг таркибий қисмиларидан бири. // "Ўзбекистон ёшлари ўртасида жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш муаммолари.// анжумани материаллари. – Тошкент: 2008. – Б.102-104.

<sup>10</sup> Nasriddinov F.N., Shaternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. – T.: 1999. -140 b.

<sup>11</sup> Salomov R.S. "Sport mashg'ulotining nazariy asoslari" // O'quv qo'llanma // Toshkent 2005.

<sup>12</sup> Usmonxadjayev, T. S. (2020). Etnosport va xalq harakatli o'yinlar tizimi. Toshkent: O'zDJTI.

<sup>13</sup> Юнусова Ю.М. Организация и методика физической культуры в общеобразовательных школах республики Узбекистана.- Т.:2002. 120 с.

<sup>14</sup> Бондаревский Е.Я. Педагогические основы контроля за физической подготовленностью учащейся молодежи. Автореф. дис.док.пед. наук.-М.:1983.-45 с.

<sup>15</sup> Хўжаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. –Т.: 1998,-285б.

mexanizmlarini takomillashtirish muammolari L.I.Lubisheva<sup>1</sup>, A.P.Strijak<sup>2</sup>, J.K.Xolodov<sup>3</sup>, V.M.Dimov, V.A.Solodyannikov, A.M.Shlemin<sup>4</sup>, P.K.Petrov<sup>5</sup>, A.K.Eshtayev, Yu.V.Menxin<sup>6</sup>larning ilmiy-metodik tadqiqotlarida umummetodologik asosda tahlil qilingan.

Xorijiy olimlardan M.Patey, F.Xioping, J.P.Bennett, D.Mastad, H.Noack, D.Carless, J.Cornell, A.Cutter-Mackenzie A.Pennell, M.B.Linebergerlarning tadqiqotlarida insonning ma'naviy va jismoniy rivojlanishining uyg'unligi, jismoniy tarbiya fanining ijtimoiy ahamiyati, harakatli o'yinlar vositasida talabalar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning ilmiy asoslari va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning oqilona usul va yo'llarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Biroq, bo'lajak tarbiyachilarning milliy o'yinlar vositasida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qiziqishini uyg'otish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni an'anaviy harakat madaniyati asosida zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarini qo'llashga tayyorlash mexanizmlari alohida ilmiy izlanish obyekti sifatida chuqur tahlil qilinmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon davlat pedagogika institutining "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" nomli asosiy ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** milliy harakatli o'yinlar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlariga oid ilmiy-taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jismoniy tarbiya darslari va amaliy mashg'ulotlar jarayonida milliy harakatli o'yinlar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini ochib berish va yetakchi omillarini aniqlashtirish;

refleksiv yondashuv asosida milliy harakatli o'yinlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning funksional modelini ishlab chiqish;

milliy harakatli o'yinlar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritib berish;

bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning refleksiv texnologiyalarini ishlab chiqish.

<sup>1</sup> Лубышева Л.И. Методология обоснования содержания физического воспитания учащейся молодежи // матер. совместной науч. – практ. конф.РГАФК, МГАФК, ВНИИФК. – М., 2001, - С.162-166.

<sup>2</sup> Стрижак А.П. Научно-методические основы управления тренировочным процессом высококвалифицированных легкоатлетов-прыгунов. Автореф. дис... докт. пед. наук. – М., 1992, - 50 с.

<sup>3</sup> Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., Академия, 2000, - 480 с.

<sup>4</sup> Гимнастика. Учебник для институтов физической культуры | Шлемин А. М.

<sup>5</sup> П.К.Петров Методика преподавания гимнастики в школе – 2014г 450 стр.ISBN:978-5-691-02011-7

<sup>6</sup> Ю.В.Менхин Физическая подготовка в гимнастике — М.: Физкультура и спорт, 1989. — 224 с, ил. ISBN 5—278—00048—1

**Tadqiqotning obyekti:** Oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar (bo'lajak tarbiyachilar)ning jismoniy tayyorgarlik jarayoni va ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish mexanizimi bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Andijon davlat pedagogika instituti, Qo'qon davlat universiteti hamda Toshkent amaliy fanlar universitetidan jami 341 nafar respondent talabalar ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti:** Tadqiqot predmeti sifatida milliy harakatli o'yinlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonining mazmunli, tizimli va metodologik komponentlari, shuningdek ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik muhit, didaktik tamoyillar va o'qitish vositalari majmui belgilandi.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy manbalar, DTS, o'quv reja va fan dasturlari, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni hamda tajribalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnoma, pedagogik eksperimental tadqiqot, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

milliy xarakterli o'yinlar vositasida bo'lajak tarbiyachilarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari talabalar faolligiga moslangan xarakterli musobaqalar dasturiy ta'minotiga chidamlilik, chaqqonlik, epchillik ko'nikmalarini sog'lomlashtiruvchi variativ o'yinlar (kim chaqqon, dorboz, qopqon) to'plamiga xarakter ketma-ketligini muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish modeli o'quv muxitida samaradorlikni ta'minlovchi texnologik bosqichlari (tayyorlov, amalga oshirish, nazorat va tahlil) ga milliy o'yinlarning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini faol rivojlanish omillari bilan adaptatsiyalash asosida takomillashtirilgan

talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ta'lim oluvchilarning individual kasbiy traektoriyasiga milliy xarakterli bilan tarbiyalashga oid maxsus assisment va interfaol mashqlar to'plamini komplekslashgan kurs bo'limlariga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

ta'lim oluvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik ko'rsatkichlari umumiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridagi yuklamalarni qo'llash metodikasiga milliy xarakterli o'yinlar orqali talabalarning individual imkoniyatlarni aniqlash me'zonlarini sport turiga xos moslashtirish asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va monitoring qilish uchun maxsus diagnostik metodikalar va baholash vositalari yaratilgan;

oliy ta'lim jarayonida milliy o'yinlar asosida jismoniy kamolotni ta'minlashga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlarning pedagogik asoslari va amaliy dasturlari ishlab chiqilgan;

bo'lajak tarbiyachilarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishning reflektiv texnologiyalari va innovatsion usullarining metodik majmui yaratilgan;

“Bolalar jismoniy tarbiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr ettirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Tadqiqot natijalari pedagogik tajribasini ishlarida qatnashgan 3 ta oliy ta‘lim muassasasining maktabgacha ta‘lim yo‘nalishidagi talabalarini ishtirokida amaliy jihatdan tasdiqlandi. Milliy harakatli o‘yinlar vositasida jismoniy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligi eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy natijalari o‘rtasidagi farq matematik-statistik tahlil asosida isbotlandi.

Ilmiy natijalar bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga doir mavjud nazariy adabiyotlar, milliy harakatli o‘yinlar sohasidagi ilg‘or xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil orqali tasdiqlandi. Bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun maxsus diagnostika va monitoring vositalari orqali olingan natijalar takroriy tekshiruvlar bilan aniqligi va barqarorligi isbotlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o‘yinlar orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishga doir nazariy-fundamental yondashuvlarining kengaytirilganligi, milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik-psixologik mohiyati aniqlanganligi va jismoniy rivojlanish jarayonining mexanizmlari empirik jihatdan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o‘yinlar vositasida jismoniy sifatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda, innovatsion-kompetensiyaviy yondashuv asosida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida milliy harakatli o‘yinlar orqali bolalarning jismoniy rivojlanishini ta‘minlashda, shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlandi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bakalavriat talabalariga “Bolalar jismoniy tarbiyasi” fanini o‘qitishda milliy harakatli o‘yinlar texnologiyalarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tadqiqot natijalari asosida: milliy harakatli o‘yinlar vositasida bo‘lajak tarbiyachilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun o‘quv dars mashg‘ulotlari va darsdan tashqari vaqtlarda qo‘llaniladigan vositalarini tizimli tartibda o‘yin usulda ketma ketligida bajarish hisobiga, mazmunli va jarayonli jismoniy rivojlantirishga oid komponentlarning strukturaviy tarkibini uyg‘unlashtirish asosida ochib berilganligiga oid ilmiy yangiligidan 60110200 – Maktabgacha ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Bolalar jismoniy tarbiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug‘i, 563115 - raqamli guvohnoma asosida). Natijada bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlari va faolligi asosida ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazilishi hamda ma‘naviy dunyosining salbiy ta‘sirlardan himoyalinishiga erishildi.

milliy harakatli o‘yinlar orqali bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning funksional modeli pedagogik faoliyatning kognitiv, aksiologik va refleksiv komponentlari taksonomiyasini mavjud oliy ta‘lim sharoitiga implementatsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar “Yangi kuch”ni yaratish mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan. (Respublika ma‘naviyat

va ma'rifat markazi huzuridagi "Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti"ning 2025 - yil 5-avgustdagi 10/507-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlari va faolligi asnosida ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazilishi hamda ma'naviy dunyosini ehtimoliy buzilishi oldi olinishiga xizmat qilgan.

milliy harakatli o'yinlar vositasida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari aniqlangan. Bu mexanizmlar talabalarning individual kasbiy traektoriyalari va jismoniy tarbiya bo'yicha maxsus kurs metodikasini hisobga olgan holda takomillashtirilganligiga oid ilmiy yangiligidan "Bolalar jismoniy tarbiyasi" nomli o'quv qo'llanma yaratishda asos bo'lib xizmat qildi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i, 563115 - raqamli guvohnoma asosida). Natijada, "Maktabgacha ta'limda bolalar jismoniy tarbiyasi" fani mazmuni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilib, o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan didaktik asoslar bilan mustahkamlandi;

milliy harakatli o'yinlarni bo'lajak tarbiyachilarning kundalik hayotiga kiritish bo'yicha o'tkazilgan empirik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi statistik tahlil orqali jismoniy faolligi takomillashtirilganligiga oid ilmiy yangiligidan Mazkur pedagogik-metodologik tavsiyalar O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan №Al-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli amaliy loyihaning bo'lajak pedagoglarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir komponentlarini ishlab chiqishda tatbiq etildi (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 04-iyuldagi 298-sonli rasmiy ma'lumotnomasiga asosan). Natijada, maktabgacha ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga va ularning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 125 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak tarbiyachilar jismoniy tayyorgarligini shakllantirish mexanizmlarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak tarbiyachilarni jismoniy tarbiyalashda milliy harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari shu bilan birgalikda bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarining rivojlanishi va ularning ahamiyati to'la yoritilgan. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan keng miqyosdagi transformatsiyalar natijasida uning mazmuniy va sifatiy parametrlarini yangilash maqsadida mamlakat rahbariyati tomonidan huquqiy-normativ baza mustahkamlandi.

Bundan tashqari, maktabgacha va maktab tizimini rivojlantirish konsepsiyasida jismoniy va aqliy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalash hamda ularda sog'lom turmush tarziga amal qilishni shakllantirish vazifasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini o'zlashtirishi, ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish ko'nikmalarini shakllantirishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy harakatli o'yinlar yordamida bo'lajak tarbiyachilarda milliy qadriyatlarni anglash, ularni qadrlash va amaliy faoliyatda ifoda etish ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu o'yinlar o'zbek xalqining boy madaniy merosi, qadimiy an'analari va tarixiy tajribasining amaliy ifodasi bo'lib, ular orqali talabalarda milliy madaniyat va an'analarni davom ettirish tuyg'usi mustahkamlanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, milliy o'yinlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Jismoniy tayyorgarlikni mustahkamlash - O'yinlar orqali sportning asosiy elementlari (yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash) o'rgatiladi va takomillashtiriladi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Dissertatsiyaning **“Milliy harakatli o'yinlarning didaktik imkoniyatlari, tadqiqotning usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Tadqiqotning tashkil qilinishi modeli va bo'lajak tarbiyachilarni jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasini aniqlash shu bilan birgalikda Bo'lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashda milliy harakatli o'yinlardan foydalanish modeli har taraflama yoritilib berilgan.

Milliy harakatli o'yinlar o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan madaniy merosi bo'lib, ularning mazmunida faqat jismoniy faollik emas, balki muayyan ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ijtimoiy munosabatlar va hamkorlik tamoyillari mujassamdir. Masalan, “Arqon tortish”, “Do'ppi urdi”, “Uloq tortish”, “Oq terakmi, ko'k terak” kabi o'yinlar qatnashchilardan nafaqat chaqqonlik va tezkorlik, balki mehnatsevarlik, sabr-toqat, raqibga hurmat, jamoaviylik kabi fazilatlarni ham talab etadi (2-rasmga qarang).

MAQSADI	VAZIFALARI	YANGI METODIKALARGA O'RGATISH VA KASBIY RIVOJLANISH	
<p>Talabalarning jismoniy faolligini oshirish, milliy qadriyatlarni singdirish va ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlashda milliy harakatli o'yinlar asosida jismoniy tarbiya dasturlarini takomillashtirish</p>	<p>- Milliy harakatli o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish. -Jismoniy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi o'yinlar tizimini shakllantirish. -O'quv dasturiga mos milliy o'yinlar tanlovi va metodikasini ishlab</p>	<b>MAZMUNI</b>	<p>Milliy qadryatlarga asoslangan jismoniy mashqlar va o'yinlar orqali bolalarda vatanparvarlik, milliy g'urur, o'z millatining madaniyati va urf-odatlariga</p> <p>Milliy an'analar asosida tashkil etilgan jismoniy mashqlar bolalarda jismoniy kuch, chidamlilik, jasorat, faollik kabi fazilatlarni</p>
<p><b>NATIJA</b></p>	<p><b>VOSITALARI</b></p>		<p>Innovatsion infrastruktura</p>
<p>-Talabalarda chaqqonlik, kuch, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning rivojlanshi. -Milliy g'urur, jamoaviylik, hurmat va mas'uliyat hissining shakllanishi.</p>	<p>Innovatsion ilmiy-ta'limiy Talabalarni psixologik peagogik qo'llab-quvvatlash</p>	<p>Innovatsion ta'lim texnologiyalari</p>	

**2-Rasm. Milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya dasturlarining shakllanishida talabalarning jismoniy, ma'naviy va axloqiy rivojlantirish bosqichlari**

Jismoniy tarbiya dasturlariga milliy harakatli o'yinlarni integratsiya qilish orqali talabalar:

- o'zlarining jismoniy salohiyatini – kuch, chaqqonlik, muvozanat va chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantiradi;

- o'z milliy ildizlariga, an'analarga hurmat bilan qarashni o'rganadi;

- axloqiy me'yorlarga asoslangan ijtimoiy xulq-atvorni egallaydi.

Bu jarayonda rivojlantiruvchi mexanizm sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Didaktik asoslangan o'yinlar tizimini yaratish – har bir mashg'ulotda muayyan pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi o'yinlardan foydalanish;

2. Shaxsiy yondashuvni ta'minlash – har bir talabaga individual yondashib, ularning jismoniy va psixologik holatini hisobga olish;


3. Aks ettiruvchi tahlil va fikrlashni rag'batlantirish – o'yin natijalari bo'yicha muhokamalar tashkil etib, axloqiy xulosa chiqarishga yo'naltirish;

4. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali ongli ishtirokni kuchaytirish – harakatli o'yinlar orqali biror qadriyatni (masalan, do'stlik, halollik, sabr) muhokama qilish.

Shu bilan birga, milliy harakatli o'yinlarga asoslangan dasturlarni shakllantirishda o'qituvchi (yoki murabbiy) talabalarning shaxsiy rivojlanishini chuqur tushungan holda dars mazmunini rejalashtirishi zarur. Bu orqali jismoniy tarbiya darsi oddiy jismoniy faollik emas, balki tarbiyaviy jarayon sifatida qaraladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy o'yinlar asosida olib borilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ularni do'stona muhitda o'zaro muloqotga kirishishga, ijtimoiy faol bo'lishga undaydi. Ayniqsa, kelajakda tarbiyachi bo'lishni maqsad qilgan talabalar uchun bu o'yinlar ularning kasbiy shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Ilmiy izlanishlar ham harakatli o'yinlarning jismoniy tarbiya sohasidagi ulkan salohiyatini tasdiqlaydi. Masalan, maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan bir tajribada, har haftada muntazam milliy o'yinlar bilan shug'ullangan guruhning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarida nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli o'sish qayd etilgan ( $p < 0.001$ ). Boshqa bir tadqiqot natijasiga ko'ra, an'anaviy harakatli o'yinlar bilan haftada to'rt marotaba shug'ullanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida eng samarali natija bergan – ya'ni haftasiga 4 marta o'yin mashg'ulotlari o'tkazilgan sinfda chidamlilik va tezkorlik testlari eng yuqori darajada yaxshilangan. Xulosa qilish mumkinki, xalq milliy o'yinlari orqali o'yin tarzidagi jismoniy mashg'ulotlar bolalarning harakat sifatlarini kompleks rivojlantiradi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy jismoniy tarbiya dasturlarida harakatli o'yinlarga keng o'rin berilishi, ularni sport mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtirib qo'llash masalasi dolzarbdir. (3-rasmga qarang)



**3-rasm "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini jismoniy sifatlarini milliy xarakatli o'yinlar vositasida takomillashtirish" modeli**

Milliy harakatli o'yinlarni ta'lim tizimiga samarali joriy etish ko'p jihatdan pedagog kadrlarning tayyorgarligiga bog'liq. Bo'lajak tarbiyachi va jismoniy tarbiya o'qituvchilari milliy o'yinlarning mazmun-mohiyatini, ularni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasini chuqur o'zlashtirishi zarur. Mutaxassislar ta'kidlashicha, har qanday harakatli o'yinni dars yoki mashg'ulotda qo'llashdan avval, uni to'g'ri tashkil qilish tartibi, qoidalari, o'tkazilish shart-sharoitlari va pedagogik talablari haqida yetarli bilimga ega bo'lish lozim. Shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida milliy harakatli o'yinlar bo'yicha maxsus metodik tayyorgarlik berilishi kerak. Bu tayyorgarlikni shartli ravishda bir necha bosqichga bo'lish mumkin:

1. Nazariy tayyorgarlik. Dastlab, bo'lajak tarbiyachilar milliy harakatli o'yinlar tarixi, ularning turlari va tarbiyaviy ahamiyati haqida nazariy bilim oladilar. O'zbekiston va jahon tajribasidagi xalq o'yinlari tizimi, ularning jismoniy tarbiya dasturlaridagi o'rnini, ilmiy tadqiqotlar natijalari o'rganiladi. Mazkur bosqichda talabalarda milliy o'yinlarga nisbatan qiziqish va anglash hosil qilish, ularni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qadrlash tuyg'usini shakllantirish muhim. Shu maqsadda dars mashg'ulotlarida milliy o'yinlar haqidagi videoroliklar, ko'rgazmali materiallar, folklor manbalardan parchalar keltirilishi mumkin. Ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachi kadrgina keyingi bosqichlarda bu o'yinlarni amaliyotda to'g'ri qo'llay oladi.

2. Amaliy o'yin texnikasini o'zlashtirish. Keyingi bosqichda talabalarga turli milliy harakatli o'yinlarning qoidalari va texnikasi bevosita amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Bu jarayonda o'yinlarni o'zlari o'ynab ko'rishlari, har bir o'yinning strukturasi, harakatlarni bajarish usullarini amalda sinab ko'rishlari talab etiladi. Masalan, talabalarga "Chillak" o'yinini o'ynatish orqali uning texnikasi - tayyoqchani uloqtirish va yerdagi toshchani mo'ljalga urish harakatlari - ko'rsatiladi. "Oq terakmi, ko'k terak", "Topib ol", "Uyur" kabi bolalar o'yinlarini kichik guruhlarda o'ynab, ishtirokchilar vazifasini navbatma-navbat bajarish orqali talabalarda bu o'yinlarni tashkil etish ko'nikmasi shakllantiriladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'yinlarning variative (turli variantlarda) o'tkazilishi ham o'rgatiladi – masalan, ishtirokchilar soni ko'p bo'lganda yoki imkoniyat cheklanganda qoidalarni moslashtirish. Bo'lajak tarbiyachilar o'yin o'tkazishda xavfsizlik texnikasi, maydon va jihozlarni tayyorlash, bolalarni safga tizish va tushuntirish berish kabi tashkiliy masalalarda ham malaka hosil qiladilar.

3. Uslubiyotni (metodika bo'yicha) tayyorlash va rejalashtirish. Ushbu bosqichda talabalarga jismoniy tarbiya darslarida va mashg'ulotlarda milliy o'yinlarni qachon va qay tartibda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Ma'lumki, har bir dars uch qismdan (kirish – asosiy – yakuniy) iborat bo'ladi va harakatli o'yinlarni bu tuzilmaning turli qismlarida turlicha maqsadlarda ishlatish mumkin. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda darsning maqsad - vazifalaridan kelib chiqib ish tutishi lozim. Masalan, darsning kirish (tayyorlov) qismida o'yinlar asosan bolalarni qizdirish, ularda diqqatni jamlash va darsga qiziqish uyg'otish uchun qo'llanadi. Buning uchun sodda va qisqa "Hamma o'z joyiga", "Diqqat – start!", "Topib ayt" kabi

